Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320509

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar, suv resurslarini boshqarishda samaradorlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Suvni tejash va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun "aqlli" texnologiyalarni qo'llash zarur.

Xulosa sifatida, O'zbekiston suv resurslarini boshqarish, ayniqsa, aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali samarali boshqarish, kengaytirilgan investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Iqlim o'zgarishlari va demografik o'sish tufayli suvga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda, shuning uchun suv resurslarini boshqarishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Aylanma iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy qilish, masalan, suvni qayta ishlash va tejash, nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bozorov, A. (2022). O'zbekiston suv resurslarini boshqarish: Mavjud holat va kelajakdagi istiqbollar. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi.
2. Mamatov, F. & Ismailov, S. (2020). "Suv resurslarini boshqarishda innovatsion texnologiyalar: Xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitida". Global Water Resources, 35(2), 145-160.
3. Kim, J. & Lee, Y. (2021). Aylanma iqtisodiyot va suv resurslarini boshqarish: Xalqaro yondoshuvlar. Seul: Yashil Iqtisodiyot nashri.
4. Ushakov, R. (2021). "Suvni qayta ishlash va tejashda innovatsion texnologiyalar". Ekologiya va Energetika, 27(3), 89-94.
5. OECD (2022). Suv resurslarining samarali boshqarilishi: Aylanma iqtisodiyot tamoyillari asosida. OECD Publishing.
6. United Nations (2021). World Water Development Report 2021: Valuing Water. United Nations, Paris. https://www.worldbank.org/en/programs/global-water-security-sanitation-partnership
7. Jabbarov, T. & Samadov, B. (2023). "Suv resurslarini boshqarishda davlat-xususiy sheriklikning roli". Tadbirkorlik va iqtisodiyot, 12(1), 67-74.

AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI JADALLSHTIRISH VA ULARNING HUQUQ VA MANFAATLARINI SO'ZSIZ TA'MINLASH, BARQAROR BANDLIK VA YUQORI DAROMAD TOPISHGA ERISHISH-KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM SHARTI

Xasanova Guljamol Botirali qizi
(Andijon davlat universiteti 2-kurs magistranti)
xasanovaguljamol384@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish natijasida aholi farovonligini oshirish yo'nalishlari to'g'risida fikr yuritilgan, hamda tadbirkorlik faolyati va tadbirkorning huquq va muhofazalarini ta'minlash bo'yicha kamchilik va takliflar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: aholi farovonligi, farovonlik, ijtimoiy farovonlik, aholi turmush darajasi, tadbirkorlik,

Mamalakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tadbirkorlikning o'rni beqiyosdir. "O'zbekiston-2030" strategiyasining ikkinchi ustuvor yo' ham mamlakatimizning iqtisodiy o'sishi va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan. U 17 ta maqsadni o'z ichiga oladi.

Published: 23.12.2024

Cite this article: Xasanova Guljamol Botirali qizi (2024). Aholi farovonligini oshirish iqtisodiyotda tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallshtirish va ularning huquq va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish - kambag'allikni qisqa.... Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320509

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining 2023 yilda amalga oshirilgan ishlari doirasida barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini ta’minlash maqsadida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, turizmni rivojlantirish, transport sohasidagi islohotlar, sanoatni rivojlantirish kabi muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu islohotlar, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, xalqaro hamkorliklarning kuchayishi va aholi farovonligining oshishiga qaratilgan. Ularning amalga oshirilishi O‘zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyoti va global miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek xalqaro tajribadan ma’lumki, milliy iqtisodiyotdagi barcha iqtisodiy o‘zgarishlarni baholash, uning pirovard natijasi aholi farovonligini qay darajada yaxshilanayotganligi hamda kambag‘allar sonini nechog‘li qisqarib borayotganligidan kelib chiqadi. Faravonlik esa 2 qismda iborat bo‘ladi: Iqtisodiy farovonlik- bunda is’temol darajasining aholi jon boshiga isoblanishi bilan, Ijtimoiy farovonlik esa insonlarning qay qarajada yashash sgaroiti bilan ta’minlangangi bilan ifodalandi. Demak, jamiyat ishlab chiqarganiga qarab iste’mol qiladi, ammo hammasini emas, ma’lum bir qismi jamg‘arilib kelajak xaridlarga yo‘naltiriladi. Ayni vaqtda dunyoda yaratilgan tovar va xizmatlar qiymatining 18 foizi jamg‘arma hosil etib, kelajakni ta’minlaydi[1]. Farovonlik kategoriyasi va uning tarkibi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi.

Ma’lumki farovonlik - bu insonlar hayotini moddiy ne’matlar bilan ta’minlash tizimi bo‘lib, unda shaxslarning jismoniy imkoniyatlari va ijtimoiy faolligi yuqori bo‘ladi. Farovonlik quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: daromad va iste’mol; davlat ijtimoiy kafolatlari va pullik xizmatlari; ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy himoya[2]. Mamlakatda farovonlik asosi moddiy ne’matlar ya’ni tovar va xizmatlar bo‘lib, bu avvalo insonlarni fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan resurslarni o‘z ichiga oladi. Resurslar esa farovonlik uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, ularning mavjudligi va samarali foydalanish jamiyat farovonligini yanada oshirishga olib keladi. Ijtimoiy farovonlik birinchidan, resurslar, ikkinchidan iqtisodiyotda tovarlar ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol mexanizmlarini mavjudligi va uchinchidan nomoddiy ne’matlarni o‘z ichiga oladi[3].

Tadbirkorlik esa – iqisodiy daromad olishning alohida turi bo‘lib, uning zamirida mustaqil tashabbus, javobgarlik, ishbilarmonlikning g‘oyasiga asoslangan, foyda olishga yo‘naltirilgan maqsadga mufofiq faoliyat hisoblanadu[4].

Tadbirkorlik –(ingl. Yenterprise) shaxsiy daromad, oyda olishga qaratilgan fuqarolarning mustaqil faolyati. Bu faolayt oz nomidan, o‘z mulkiy va uridik shaxsning mas’uliayt evaziga amalga oshiriladi. Tadbirkor (frn. Yentrepreneuer) qonun tomonidan taqiqlanmagan barcha xo‘jalik faoliyati, shu jumladan, vositachilik, sotish, sotib olish, maskahat berish, qimmatbaho qog‘ozlar bilan ish olib borish bilan shug‘ullanishi mumkin[5].


Joriy yilning 20-avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, tadbirkorlarga qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritishiga ko‘maklashish va qonunbuzilishlarning barvaqt oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish, ularning huquqlarini ishonchli himoya qilish va nazorat qiluvchi organlarning mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida yana bir qunun loyihasi ish qishni tavsiya berdi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 14.11.2024 yildagi PF-184-son ,, TADBIRKORLAR HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI ISHONCHLI HIMOYA QILISH CHORA-TADBIRLARI’’ TO‘G‘RISIDA[6] qonun loyihai ishlab chiqildi.

Bu qonun loyihasiga asosan tadbirkorlarning huquq va manffatlarini himoya qilish turli huquqni targ‘ibot qiluvchi organlar hamda hokimyat tomonidan turli xil boshqa

turdagi mashg‘ulotni amlaga oshirmaslik va Tadbirkorlik tekshiruvlarida tadbirkor quyidagi huquqlarga ega ekanligi ta’minlandi:

- nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxsining tekshiruv masalalariga aloqasi bo‘lmagan talablarini bajarmaslik;
- tekshiruv o‘tkazishda shaxsan yoki o‘z vakili orqali ishtirok etish;
- talab qilib olinayotgan hujjatlarni, agar ushbu hujjatlar yoki ularning nusxalari tadbirkorlik subyekti tomonidan nazorat qiluvchi organga oldingi o‘tkazilgan tekshiruvlarda taqdim etilgan bo‘lsa, taqdim etmaslik;
- nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsining ruxsati bilan ekspertiza o‘tkazishda ishtirok etish va ekspertga tushuntirishlar berish, ekspertning xulosasi bilan tanishish;
- ekspertni rad etish va ekspertni o‘zi ko‘rsatgan shaxslar orasidan tayinlash to‘g‘risida iltimos qilish;
- tekshiruv materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomasini olish;
- nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan, shuningdek, belgilangan tartibda tekshiruv natijalari ustidan shikoyat qilish;
- tekshiruvni o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruq (qaror, farmoyish) belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan va buyruq nusxasi tadbirkorlik subyektiga berilmagan, tekshiruv to‘g‘risida vakolatli organ belgilangan tartibda xabardor etilmagan (tekshiruv boshlangandan so‘ng 24 soat ichida xabardor etish tartibi bundan mustasno), nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini beruvchi maxsus guvohnoma mavjud bo‘lmagan, Tekshiruvlarni ro‘yxatga olish kitobiga ma’lumotlarni kiritishdan bosh tortilgan hollarda, nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsini tekshiruv o‘tkazish uchun o‘z hududi va binolariga qo‘ymaslik.
- Har yili 3000dan oshiq mayda korxonalar ochilib yana shuncha korxonalar tashkil topmoqda. Bundan ko‘rinadiki Respublikasizda yirik tadbirkorlik subyektlaridan ko‘ra kichik tadbirkorlik subyektlari yanada rijovlanmoqda. Mamlakatmizda kichik tadbirkorlik sobyektlarining YaIm da hajmi ham yildan yilga ortmoqda:

1-jadval



Kichik tadbirkorlik subyektlarida esa kundan kunga mamlakatimiz aholsi ish bilan ta’minlanmoqda:

2-jadval



Respublikamizda aholi farovonligini oshirishdagi tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish muhim strategik maqsadlardan biri 2030 yilgacha yalpi ichki mahsulotni 160 mlrd dollarga, jon boshiga yalpi ichki mahsulot 4 ming dollarga yetkazishdir. Buning uchun real yalpi ichki mahsulotning o‘sishini 2,1 baravar va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot o‘sishini xorijiy valyutada 3 baravar yoki 2018 yildagi 1533 AQSH dollariga nisbatan 4538 AQSH dollarigacha ta’minlash maqsad qilingan. Qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun iqtisodiy o‘sishning o‘rtacha yillik sur’atlarini 10,0 foizdan past bo‘lmagan darajada qo‘llabquvvatlash zarur bo‘ladi. 2026 yilgacha aholi farovonligini yanada oshirishga qaratilgan «100 ta maqsad»da belgilangan vazifalarni bajarishga kirishildi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish asosan inson kapitalini rivojlantirishda birinchidan, ta’lim tizimi faoliyatidagi mavjud kamchiliklar bartaraf etish orqali uning sifati oshirish; ikkinchidan, sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini va aholi uchun undan foydalanish imkoniyati kengaytirish; uchinchidan, kambag‘allikni o‘lchash tizimini, unga qarshi kurashish tizimini takomillashtirib borish; to‘rtinchidan, aholi zaif qatlamlarining mehnat bozoridagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirish; beshinchidan, aholini tabiiy gaz, toza ichimlik suvi ta’minoti va sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim o‘rin tutadi. Bu va shunga mos ravishda hududiy va respublika miqyosidagi Dasturlar ijrosi istiqbolda aholi farovonligini yanada ortishiga tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish masalalari umid uyg‘otadi.

REFERENCES

1. 1.Tadbirkorlik huqulari va qonunuy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora- tadbirlari T:O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.11.2024 dagi PF-184-son Farmoni.

2. 2.2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. - T:O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 dagi PF-60-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi. 07.11.2019. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi.
4. G‘oyibnazarov B.K. Aholi turmush darajasini statistik baholash. Monografiya. -Toshkent. “Fan” nashriyoti, 2005 yil, — B. 12.
5. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conferencye Zone. – 2022. – S. 129-133.
6. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conferencye Zone. - 2022. -S. 129-133.
7. Kazakov O.S. Menejmentga kirish. Darslik. Toshkent. -Fan ziyosi-nashriyoti, 2021 y.
8. Kamoliddinov , I. M. (2022). O‘ZBEKISTONDA INNOVASION MARKETINGNI RIVOJLANISH SAMARADORLIGI. Arxiv nauchnых issledovaniy, 2(1). Izvlecheno ot http://journal.tsuye.uz/index.php/archive/article/viyew/1909
9. Kamoliddinov I. Namangan viloyatida kichik ishlab chiqarish tadbirkorligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari //Obщyestvo i innovasii. – 2022. – T. 3. – №. 3/S. – S. 81-88.
10. Respublika Davlat Statistika boshqarmasi ma’lumotlari.
11. www.lex.uz
12. www.stat.uz

QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI TAKROR ISHLAB CHIQARISHDA INVESTITTSIYADAN SAMARALI FOYDALANISH

Zaripov Azamat Jo‘rayevich
(Buxgalterya hisobi va moliya kafedrasi o‘qituvchi)
Ilyosova Marjona Do‘stbek qizi
Guliston Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ish qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda qishloq xo‘jaligi sohasi uchun investitsiya salohiyatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga qaratilgan usullar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmlari va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sifatida qishloq xo‘jaligidagi investitsiyalarni optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu tavsiyalar takror ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini ta'minlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi. Ish natijalari amaliyot uchun ahamiyatli bo‘lib, qishloq xo‘jaligi sohasida iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi.